

Yosh qo‘zilar 7-8 oyligida 35 kg, yetilgan qo‘y 80-90 kg, sovliqlari 45-50 kg atrofida bo‘ladi. Serpushtlilik va tez yetiluvchanlik ushbu zotning mamlakatimizda urchitish uchun yaxshi sababchilari bo‘lishi mumkin. Romanov zotli qo‘ylar mavsumga qaramay ikki yilda 3 avlod berishi mumkin. Ushbu zot qo‘ylar yuqori sutlilik bilan ham ajralib turadi. O‘rtacha bir bosh ona qo‘ydan 100 kun davomida 100-110 litr sut sog‘ib olinib, sutining yog‘lilik darajasi 7-8% ga teng.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богданов Е. “Типы телосложения животных”. Сбор. изд. работ. М-1977. стр 224.
2. Turganbaev R.U. «Qorako‘l qo‘ylarning sut mahsuldorligining konstitutsiya tiplariga bog‘liqligi», «Chorvachilik va naslchilik ishi» ilmiy-amaliy jurnali, Toshkent №1 2020-yil, 22-25 betlar.
3. Бозоров А. Б. “Рост и развитие молодняка каракульских овец сур в условиях гипсовой пустыни”. Материалы международной научно–практической конференции Самарканд. 2019.с. 94-95.
4. Юсупов С. Ю. va boshqalar. Qorako‘lchilikda naslchilik ishini yuritish va qo‘zilarni baholash mo‘yicha qo‘llanma. –Toshkent. 2015, 31 bet.

PARRANDA TUXUMLARIDA EMBRIONLARINI O‘SISH VA RIVOJLANISHI

Mamatov X.A., Tursunbaeva I., Normatov D., Durdiboeva F., Ozodov A
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Nukus filiali

Annotatsiya. Maqolada, parrandachilikda veterinariya-sanitariya qoidalari, tuxum sifatini baholashda vazni, shakli tuxumning tashqi ko‘rinishini ko‘zdan kechirishda uning shakli va po‘chog‘ining holatiga ahamiyat berilgan. “Universal-55” va Xitoy “HB-22528” inkubatoriyalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tuxum, inkubatsiya, inkubator, avaskop, ventilyatsiya, murtak.

Kirish. Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga ilg‘or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish, raqobatbardosh parranda

mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta'minlashdir.

Embrionlarning tashqi muhitga bog'lanishida ularda turli biokimyoviy va fiziologik jarayonlarni o'sishga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu holatlarni kuzatib borishi bevosita tuxumning sariq qobig'i, serroz qavati va allantois o'zgarishlari o'rganilishi orqali amalga oshiriladi. Embrionlarni sarg'ich qobig'i inkubasiyaning 4-kunida tashkil topadi va 11-kunida tuxum voyaga yetgan bo'lib hisoblanadi.

Sariq qobiq embrionlarni rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Chunonchi unda oziq moddalar to'planadi va embrionni oziqlantiradi va uning o'sib borishi bilan birgalikda hayot faoliyatini boshqaradi. Bu qobiqda juda ko'p qon tomirlari joylashadi, shu sababli u orqali embrionlarni oziqlanishi, nafas olishi taminlanadi. Bu qobig' sariq qiyom bilan birgalikda embrionlarning qorniga yopishib, embrionlarning jindigini vujudga kelishiga asos soladi va uning negizida jo'jalarni 12 barmoqli ichagi vujudga keladi. Bu qavatdan embrionlar va jo'jalar, embrion va postembrional davrlarini dastlabki kunlarida foydalaniladi.

Sariq qopgich bilan birgalikda embrionlarni o'sishi va rivojlanishi tuxumlarda inkubasiyalashni ikkinchi kundan so'ng ikkita qavat hosil qiladi, serroz va allantois bo'lib hisoblanadi. Bu qatlamlari tashqi tomonlarini qo'shilishi natijasida murtakni ustidagi serroz qobig'i, ichida esa omnion qobig'ini hosil bo'lishiga asos soladi.

Inkubasiyaning so'nggi kunlarida amnion jadal o'sadi va murtakni to'liq qoplab olib uni turli omillardan saqlash vazifasini bajaradi. Inkybasiyaning 5-kunidagi bu omniotik suyuq modda bilan to'ldiriladi. Inkubasiyaning 12-kuniga kelib bu qoplamlar bir biri bilan qo'shib ketadi va uning negizida serroz amniotik kanal vujudga keladi.

Amnion 8 kun davomida sekin o'sib boradi, undan so'ng esa o'sishi jadallashadi va 14-kunga kelib nihoyasiga yetgan deb hisoblanadi. Amniotik suyuqlik modda bakteriosid xususiyatiga ega bo'lib embrionlarni turli mikrofloralar bilan zararlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Embrionlar o'z rivojini 9 kundan boshlab bu suyuqlikda ozuqa sifatida foydalanib boriladi. Bu qismiga hattoki tuxumning yaqin qismi xam qo'shib ketadi va ozuqa zaxirasi vazifasini bajaradi. Bu suyuqlik jo'ja ochilish yaqinlashgach to'liq iste'mol bo'ladi, iste'mol bo'lgan hollarda olingan jo'jalarni hayotchanligini pasayishiga olib keladi.

Parranda tuxumlarida embrionlarni rivoji va o'sishi natijasiga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu suyuqlik tuxumlarni inkubasiyalanishini uchinchi kunidayoq murtakli qornini orqa ichagida tashkil topadi.

Embrionlarning qorin bo'shlig'i va dastlabki ichaklari embrion sariq qismidan ajrash davrida vujudga keladi. Bu jarayon bos qismidan boshlab ancha sekinlik bilan tana bo'ylab davom ettiriladi. Rivojini 2-kunida boshlab embrion boshi, tanasi blastodiskdan ajraladi. Bu davr tuxumni ichida hosil bo'lgan embrion chap tanasiga yon boshlaydi va sariq qismidan anchagina bukulib ketadi. Bu bukulgan embrion tashqi qavati entoderma jo'jalari terisi tashkil topadi, ichki qavati esa endoderma deb aytiladi. Endoderma va mezoderma qo'shilgan holda embrionlarning dastlabki ichagini vujudga keltirishni ta'minlaydi.

Inkubasiyalashni 3-kuniga kelib embrionlarda kichik o'simtalar vujudga keladi va bu o'simtalar negizida ularni oyoqlari vujudga keladi. Aynan bu davrda embrionlarning bel qismi qorin qismiga nisbatan juda rivojlanib boradi va embrionlarni egilishiga majburlaydi. Bu davrda murtak rivojlanayotgan natijalari orqali berkiladi va sariqni ichiga cho'kib ketadi.

Inkubasiyaning 5-kunida embrionlarda ko'zlari rivojlanib boradi va keskin qorayib ketadi, 6-kunida embrionlarni oyoqalarni pastki qismlari kengayib boradi va barmoqlari vujudga keladi.

Inkubasiyaning 7-kuniga kelib embrionlarning oyoqlari qanotlariga nisbatan uzun bo'ladi. Qolaversa bu davrda embrionlarda bo'yin va og'iz bo'shlig'i shakllanadi. Inkubasiyaning 8-kunida murtak parranda jo'jasiga o'xshatilishi holatiga kelmoqda.

Inkubasiyaning 10-kuniga kelib embrionlarning ko'z qopchiklari elips shakliga o'xshaydi va unda harakatchan qavatchasi yaxshi rivojlanadi. Tuxumlarning uchida mavjud bo'lgan tish oq tusga kiradi. Patlarini negizi tepa bo'ylab ko'zga ko'rnadi, barmoqlari uchida tirnoqlari ko'rinadi. Inkubasiyaning 2 haftaligidan so'ng embrion tanasini teri qoplamidagi patlar tivitga aylanadi, ko'zlari qopgich bilan to'liq bekitilgan. Bu davrda xosil topgan tumshuq rivojlanib borishi bilan birgalikda mustahkamlanib boradi va tojisini ustlari hosil bo'ladi. Inkubasiyalashni 14-kuniga kelganda embrion tuxum bo'lib yotadi va boshini tuxumning havo kamerasiga qaratadi.

Bu o'zgarishlar bilan birgalikda parrandalarni embrionlarida juda murakkab o'zgarishlar vujudga keladi va bular embrionlarni rivojlanishiga va sog'lom, baquvvat bo'lishiga e'tibor berishini taqozo etadi.

Tuxumlarni inkubasiyalash chog'ida uning murtagi, sarig'i, oqsili va po'stlog'i muntazam ravishda modda almashinuvi o'tadi. Bunda embrion tuxumlardagi to'yimli moddalarni o'zgartirish, modda almashinuv davrida hosil zaxarli va ziyon keltiradigan moddalarni organizmdan chiqaradi, nafas oladi, issiqlikni qabul qiladi va chiqaradi.

Embrionlarni rivojlanishida suv juda muhim o'rin tutadi. Inkubasiya davrida tuxumdan juda ko'p suv chiqib ketishi bilan belgilanadi. Uning suv bilan ta'minlanishi turli texnologiya jarayonlarini o'tishi, shuningdek yog'larni parchalanishi natijasidagi organik moddalari orqali ta'minlanadi.

Inkubasiyaning dastlabki kunlarida murtakning asosiy ozuqasi uglevodlar bo'lib hisoblanadi. Murtaklarni nafas olishi va nafas chiqarishi inkubasiyalanishning turli davrlarida turlicha o'tadi.

Xulosa. Inkubasiyaning vazifasini tuxumining sariq qismi bajarmoqda qon tomirlarini va qon aylanish doirasini rivojlanishi kislorodni qon orqali tarqat boshlaydi. So'nggi etaplarda esa murtakning nafas olishi allantois orqali amalga oshadi. Jo'ja ochgandan boshlab nafas olish uning o'pkasi orqali o'tadi. Tuxumlarda inkubasiya davrda bo'lib o'tayotgan fiziologik jarayonlar tufayli juda ko'p miqdorda issiqlik hosil bo'ladi va uning miqdori 21-kun davomida 23 kkal ni tashkil etadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Parrandasanoat” uyishmasi “Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarni parvarishlash” bo‘yicha tavsiyanoma Toshkent 2018 y.
2. Джасимов Ф., Шойимардонов Н, Махмудов М, Бердиев И “Влияние предубойной голодной выдержки на показатели мясной продуктивности птицы”. “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналі” №4. 2012.
3. Ikromov .T. X, Qo‘chkorov O‘. R “Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi” Davr nashriyot (2013)
4. D.Alijonov, A.Voxidov “Parrandachilik xo‘jaliklarini mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish” Davr nashriyoti (2012)

INKUBATSIYA DAVRIDA TUXUMLARDA EMBRIONLARNI RIVOJLANISH XUSUSIYATI

Mamatov X.A., Nurimbetova A., Beysenbaev M., Kadirberdiev S.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Nukus filiali

Annotatsiya. Maqolada, parrandachilikda veterinariya-sanitariya qoidalari, tuxum sifatini baholashda vazni, shakli tuxumning tashqi ko‘rinishini ko‘zdan kechirishda uning shakli va po‘chog‘ining holatiga ahamiyat berilgan. “Universal-55” va Xitoy “HB-22528” inkubatoriyalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tuxum, inkubatsiya, inkubator, avaskop, ventilyatsiya, murtak.

Kirish. Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga ilg‘or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish, raqobatbardosh parranda mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta’minlashdir.

Tuxumlarni dastlabki havo harorati 18-22oC tashkil etishi zarur. Bu haroratga yetish uchun inkubatoridagi mavjud havo purkachlari (ventilyatorlar) va ularni eshikchalari to‘liq yopiladi, havoning namdorligini ta’minlaydigan moslama ularni umuman o‘chiriladi. Bu dastlabki ishlari chamasi bo‘lgandan so‘ng inkubasion tuxumlar latoklarga terilgan holda inkubatorga qo‘yib inkubasiyalash boshlanadi.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, tuxumlarda embrionlarni rivojini yoki inkubasiyalash kuni oshgan sari havoni harorati sekinlik bilan pasayib boradi. Bu o‘zgarish havoni quruq harorati bo‘yicha 0.2-0.4° C tashkil etadi, namdorlik sharoiti bo‘yicha jo‘ja ochgunga qadar 1-2° C pasayadi, jo‘ja ochgandan keyin esa 7° C ga qadar ko‘tariladi va shu holatda inkubatoridan jo‘ja ochilishiga tayyor bo‘lgan tuxumlarni to‘liq ochmaguncha saqlanadi.

1-jadval

Inkubasiya chog‘ida inkubatorga quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan talablar qo‘yiladi